YAHUDIYLIK VA ISLOM TA'LIMOTLARIDA NIKOH MASALALARINING QIYOSIY TAHLILI

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БРАКА В УЧЕНИЯХ ИУДАИЗМА И ИСЛАМА

COMPARATIVE ANALYSIS OF MARRIAGE IN JUDAISM AND ISLAM

TOIROVA Zilola Zafar qizi
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
Fourth-year student of Religious Studies
at the Faculty of Islamic Studies
E-mail: zilolatoirova23@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2026/1/9

Annotatsiya: *Dinshunoslik sohasi keng qamrovli ijtimoiy-gumanitar soha hisoblanib, unda dinlarning tarixi, bugungi kundagi ahamiyati, din niqobi ostidagi ekstremistik va terroristik oqimlarga qarshi kurash kabi ko'plab masalalar o'rganilishi bilan birga dinlarni qiyosiy jihatdan tadqiq qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu dinlarni yanada chuqur o'rganish, mazmun-mohiyatini anglash, bugungi kunda tutgan o'rnini bilishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, insoniyat tarixida oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib kelgan. Dinlarda nikoh shaxsiy ehtiyojni qondirishdan tashqari, diniy burch, axloqiy majburiyat, naslning pokligini saqlash va jamiyat barqarorligini ta'minlaydigan me'yorlar majmuasidir.*

Mazkur maqola zamonaviy jamiyatda oilaning barqarorligi bilan bog'liq muammolar, xususan, ajrimlar sonining ortib borishi, turmush tarzining transformatsiyalanishi sharoitida diniy normalarning amaliy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Shu maqsadda maqolada islom va yahudiylikdagi oilaviy munosabatlarning to'rtta asosiy yo'nalishi qiyosiy tahlil qilingan. Yahudiylik va islomda nikoh institutining diniy-huquqiy asoslari, nikohning o'rni va maqsadlari, nikohi ta'qiqlangan ayollar toifasi va qarindoshlik chegaralari, ajrim (get va taloq) jarayonlari va tartiblari, shuningdek, nikohdagi moliyaviy majburiyatlar – mohar, mahr va nafaqa masalalari belgilab olindi. Har ikki dinning oila huquqidagi mazkur institutlar diniy matnlar – Tanah, Talmud, Galaxa, Qur'on, hadislar, fiqh adabiyotlari asosida shakllangan bo'lib, ular o'zaro muayyan o'xshashlik va farqlarga ega. Bu qiyoslash dinlarning nikohga oid konsepsiyasidagi umumiylikni, shu bilan bir qatorda tarixiy, huquqiy va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq farqli jihatlarini, har bir dinning o'ziga xos qat'iy belgilangan huquqiy tizimini ilmiy yondashuv bilan ochib berish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *Yahudiylik, islom, nikoh, mahram, get, taloq, ketuba, mohar, mahr, nafaqa.*

Аннотация: *Религиоведение представляет собой широкую социально-гуманитарную область, охватывающую изучение истории религий, их современного значения, а также противодействие экстремистским и террористическим течениям, действующим под религиозным прикрытием. Особое место в данной области занимает сравнительное исследование религий, позволяющее глубже понять их сущность и роль в современном обществе.*

В истории человечества семья выступает как ключевой социальный институт. В религиозных традициях брак рассматривается не только как средство удовлетворения личных потребностей, но и как религиозный долг, нравственное обязательство, механизм сохранения чистоты рода и обеспечения стабильности общества.

Статья посвящена анализу роли религиозных норм в условиях современных трансформаций семейных отношений, включая рост числа разводов. В работе проводится сравнительный анализ семейных отношений в исламе и иудаизме по четырём основным направлениям: религиозно-правовые основы брака, цели и значение брака, категории запретных браков и границы родства, процедуры расторжения брака (гет и талак), а также финансовые обязательства в браке (мохар, махр и содержание).

Показано, что данные институты формируются на основе религиозных источников: в иудаизме – Танаха, Талмуда и Галахи; в исламе – Корана, хадисов и фикха, что обусловливает как сходства, так и различия в правовом регулировании семейных отношений. Сравнительный подход позволяет выявить общие принципы брака, а также специфические правовые и социальные особенности каждой религиозной традиции.

Ключевые слова: *иудаизм, ислам, брак, махрам, гет, талак, кетуба, мохар, махр, нафака.*

Annotation: *The field of religious studies is a broad social and humanitarian discipline that examines numerous issues, including the history of religions, their significance in the modern world, and the struggle against extremist and terrorist movements operating under the guise of religion. In addition, the comparative study of religions occupies an important place within this field. This is one of the key factors in studying religions more deeply, understanding their essence, and recognizing the role they play in contemporary society. For instance, throughout human history, the family has served as the primary social institution. Within religious traditions, marriage represents not merely the fulfillment of personal needs, but a complex set of religious duties, moral obligations, norms for preserving lineage purity, and principles aimed at ensuring social stability.*

This article is aimed at revealing the practical significance of religious norms in the context of contemporary societal challenges related to family stability, particularly the growing number of divorces and the transformation of lifestyles. For this purpose, the article provides a comparative analysis of four main aspects of family relationships in Islam and Judaism.

The religious and legal foundations of the institution of marriage in Judaism and Islam, the role and objectives of marriage, categories of women prohibited for marriage and the limits of kinship, the procedures and regulations of divorce (get and talaq), as well as financial obligations within marriage—including mahr, mohar, and maintenance (nafaqa)—have been outlined. The institutions of family law in both religions are based on religious texts—the Tanakh, Talmud, Halakha, Qur'an, Hadith, and fiqh literature—and exhibit certain similarities and differences. This comparison allows for a scholarly examination of both the commonalities in their concepts of marriage and the distinctions related to historical, legal, and social characteristics, as well as the uniquely defined legal systems of each religion.

Key words: *Judaism, Islam, marriage, maḥram, get, ṭalaq, ketubah, mohar, mahr, nafaqa.*

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda din sohasida olib borilayotgan islohotlar mamlakatda bag‘rikenglik tamoyilini, shuningdek, dinlararo hamjihatlikning taminlanishiga ta’sir ko‘rsatayotgani ma’lum. Respublikada bugungi kunda 16 ta diniy konfessiyaning faoliyat yuritishi, ularga tegishli jami 2372 tadan ortiq tashkilot faoliyat olib borayotgani yuqoridagi fikrning dalili deyish mumkin. Bag‘rikenglik tamoyiliga xizmat qiluvchi dinlarning ta’limoti, tarixi, shuningdek, o‘ziga xosliklarini sezilarli o‘rganish dinshunoslik sohasining muammolaridan sanaladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytilganda, “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

Darhaqiqat, insoniyat tarixida oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo‘lib kelgan. Dinlarda nikoh shaxsiy ehtiyojni qondirishdan tashqari, diniy burch, axloqiy majburiyat, naslning pokligini saqlash va jamiyat barqarorligini ta’minlaydigan me’yorlar majmuasidir. Shu bois, islom va yahudiylikda nikohning huquqiy va axloqiy tartibga solinishi keng ko‘lamli manbaviy asosga ega.

Yahudiylikda nikoh tarixiy jihatdan diniy majburiyat (mitsva) sifatida qaralgan bo‘lib, naslni davom ettirish, jamiyatni mustahkamlash va ilohiy amrni ado etishning asosiy vositasi sanaladi. Tavrotda “Odamning yolg‘iz bo‘lishi yaxshi emas, unga munosib sherik yarataman” (Ibtido 2:18) deyilishi nikohning mohiyatini belgilaydi.

Islomda nikoh Qur’on oyatlari va sunnatda mustahkamlangan shar’iy aqd bo‘lib, u jamiyatning axloqiy pokligini, naslning davomiyligini va er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyatni ta’minlovchi muqaddas rishtadir. Qur’onda nikohga bo‘lgan targ‘ib, erkak va ayolning huquq va burchlari, mahr va nafaqaga doir hukmlar aniq bayon etilgan. Shuningdek, ajrim jarayoni taloq bilan tartiblangan bo‘lib, ular oilaviy muammolarni tartibli hal etishni ko‘zlaydi.

ASOSIY QISM

Yahudiylik insoniyat tarixidagi eng qadimiy monoteistik dinlardan biri bo‘lib, unda oila va nikoh institutiga nihoyatda katta ahamiyat beriladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, yahudiy diniy an’analarida nikoh – bu shunchaki ijtimoiy birlik emas, balki diniy bir hukm (mitsva) sifatida ko‘riladi. Nikoh qoidalari Talmudda bayon qilingan. Bu qoidalarga ko‘ra, yahudiylar oilani diniy tamoyillarga asoslangan holda qurishlari, uni saqlashlari va naslning davom etishini ta’minlashlari zarur hisoblanadi.

Tavrotda olam va odamning yaratilishi haqida so‘z borganda Xudo insoniyatni erkagu ayol qilib yaratgani, ular o‘rtasida muhabbat va samimiyatni yaratib, ularga “uvali-juvali bo‘linglar, yer yuzini to‘ldirib, itoat ettiringlar” (Ibtido 2:28) deb amr qilgani aytiladi. Talmud sharhlovchilari (Rashi va Ezra) bu parchani nikohning asosiy maqsadi – avlodning davom ettirilishi ekanligiga dalil qilib keltiradi.

Yana bir bobda shunday deyiladi: “So‘ngra Parvardigor Egamiz: “Odamning yolg‘iz bo‘lishi yaxshi emas, unga munosib sherik yarataman”, dedi… Odam hamma chorvaga, qushlarga va yovvoyi hayvonlarga nom berdi. Lekin hamon unga munosib sherik yo‘q edi. Shu boisdan Parvardigor Egamiz odamni qattiq uxlatib qo‘ydi. Odam uxlab yotganda, Xudo uning qovurg‘asidan bittasini oldi va qovurg‘aning o‘rniga et qopladi. Parvardigor Egamiz odamning qovurg‘asidan xotin kishini yaratdi va uni odamning oldiga olib keldi. Shunda odam aytdi: “Nihoyat, bu mening suyaklarimdan paydo bo‘lgan suyakdir, Mening etimdan yaralgan etdir. U Xotin, deb atalgay, Chunki u erkakdan yaratilgandir”. Shuning uchun erkak kishi ota-onasidan bo‘lak chiqib, xotiniga bog‘lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo‘ladilar” (Ibtido 2:18-24). Yahudiy dinida erkak va ayol bir-birini to‘ldirishi uchun yaratilgan bo‘lib, bu ikki jinsning uyg‘un hayot kechirishining yagona yo‘li nikoh orqali oila barpo etilishidir.

Yahudiy erkakning uylanib, avlod qoldirishi Tavrotda buyurilgan. Uylanmasdan hayot kechirish yahudiy aqidasiga zid bo‘lib, “insonni nomukammal qiladi”. Talmudda: “Kishi uylanmasa, u shaxsning quvonchi, barakasi va to‘kisligi yo‘q” deb ta’kidlanadi (B. Talmud, Yevamot 62b). Shu bois, yahudiylikda

nikoh diniy amr sifatida yuqori maqomga ega (Adrienne Baker, 1993:149). Nikoh orqali erkak va ayol "bir tana" bo‘lib birlashadi va Tangrining yaratish hikmati ham shu birlashishda aks etadi (د. محمد مدبولي عبد الرزاق حسن حبيب، ٢٢٠٢).

Yahudiy an’analarida nikoh marosimining diniy qismi juda muhim sanaladi. Bu marosimlar Bet Din (diniy sud) tomonidan belgilangan qoidalarga binoan amalga oshiriladi. Talmud bo‘yicha turmush quruvchi tomonlarni izlash vazifasi odatda erkaklarga yuklangan. Qadimgi Isroilda ota-onalar yoki urug‘ kattalari juft tanlashda faol bo‘lganlar (Bouquet, 1958:210-215). Tanaxda buning ko‘plab misollari bor – masalan, Yahudo o‘g‘li Er uchun kelin tanlaganidek, Ibrohim ham o‘g‘li Ishoq uchun xizmatkorini yuborib kelin toptirgan (Muqaddas Kitob, 2024:58). Yahudiylikdagi bir qator matnlar yahudiylarning o‘z qabilalari ichidan uylanishlarini rag‘batlantirganini ko‘rsatadi (Besalal Yusuf, 2008). Bu naslni saqlash, mulkni qabila ichida saqlash kabi maqsadlarga bog‘liq. Shuningdek, boshqa din vakillari bilan nikoh borasida juda ehtiyotkor bo‘lganlar. Bobil surgunidan so‘ng bunday nikohlarga ba’zan muayyan darajadagi ruxsat berilgan bo‘lsada, umumiy qoida sifatida boshqa dindagilarga qiz berilmagan.

Nikoh marosimida kuyov, kelinning otasi yoki vakili orqali unga qiymati ma’lum bir buyumni (kesen) taqdim etadi va shu orqali nikoh aqdi amalga oshiriladi. Bu qadimiy an’ana "kidushin" yoki "erusin" deb nomlanadi. Kidushin nikohning birinchi bosqichi bo‘lib, unda ayol kuyovga diniy-huquqiy jihatdan bog‘langan hisoblanadi, ammo ular hali birga yashashmaydi (Ekrem Sarlkçıoğlu, 2004:153). Bu jarayonda aytiladigan mashxur ibora: "Sen men uchun Muso va Yahudiylar qonuniga binoan muqaddas bo‘lding". Marosimda kelin va kuyov o‘ng qo‘llarinig ko‘rsatgich barmog‘iga nikoh belgisi sifatida ustida hech qanday tosh yoki gavhari bo‘lmagan uzuk taqishadi. Sharob ichilib, duolar o‘qilgandan so‘ng kelin otasining uyiga qaytadi va nisuin marosimigacha otasining uyida qoladi. Shundan so‘ng nikohning ikkinchi bosqichi – "nisuin" amalga oshiriladi. Bu bosqichda erkak va ayol birga yashashni boshlashadi, ularning oila sifatidagi barcha huquq va majburiyatlari to‘liq kuchga kiradi. Nisuin marosimining eng muhim ramziy unsuri hupa (nikoh chodiri) ostida turishdir. Yahudiylikda nikoh vaqtida kelinning valiysi va ikki nafardan guvohlar bo‘lishi lozim (İçten Erdinç, 2019:61).

Yahudiy dini arboblariga ko‘ra, farzand o‘g‘il bo‘ladimi yoki qiz bo‘ladimi, balog‘atga yetguniga qadar kutish lozim, balog‘atdan keyin esa bu farzandlar imkon qadar tezroq uylantirilishi yoki turmushga chiqarilishi kerak. Ba’zi istisnolar mavjud bo‘lib, qiz bolaning: "Men hali turmushga chiqmoqchi emasman" degan fikri inobatga olinishi mumkin. Yahudiy an’anasida barcha qizlar uchun 12 yosh, o‘g‘il bolalar uchun 13 yosh diniy majburiyatning boshlanish yoshi sanaladi. Lekin o‘g‘il bola 18 yoshga yetgach, unga nikoh majburiyati yuklatiladi. Yahudiy olimlar ideal nikoh yoshi 16-24 yosh orasida ekanini bildiradilar.

Islom dinida nikoh – bu Allohning amri, Payg‘ambar (s.a.v) ning sunnatlari bilan, mo‘min-musulmonlarning guvohligida bog‘lanadigan muqaddas aloqa vositasidir. Imom Shofe’iydan boshqa barcha ulamolar nikohni ibodat deganlar. Ular: "Alloh va Uning Rasuli (alayhissalom) amr qilgan ish ibodat bo‘ladi, nikoh ayni shunday ishlardandir", deyishgan.

"Nikoh" lug‘atda "qo‘shish", "jamlash", "yaqinlik" degan ma’nolarni angalatdi. Shariatda esa bir bog‘lanish bo‘lib, u tufayli huzurlanishni qasd etish, ya’ni erkak kishining nikohida shar’an monelik bo‘lmagan ayol kishidan huzur olinishini halol qilishdir (Kamilov M., A.Miravaz o‘g‘li, 2021:168). Bu ta’rif ba’zi hanafiy ulamolari tomonidan aytilgan. Ta’rifdagi "ayol" so‘zidan ayol kishidan boshqa bilan nikoh bog‘lash mumkin emasligi, yani nikoh bog‘lanishi faqat bir erkak va bir ayol o‘rtasida bo‘lishi kelib chiqadi. "Nikohida shar’an monelik bo‘lmagan" degan jumladan butparast ayol, mahram, ya’ni yaqin qarindosh bo‘lgan ayol – shariat nikohini harom qilgan ayolni nikohlab bo‘lmasligi kelib chiqadi (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2023:6).

Alloh taolo Qur’oni karimning "Rum" surasi 21-oyatida marhamat qiladi: "Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir".

Bundan tashqari musulmon kishi faqat o‘zi nikohda oilali bo‘libgina qolmay, boshqa, o‘z qo‘l ostidagilar va qaramog‘ida bo‘lganlarning ham nikohiga mas’uldir. Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhamat qiladi: "Oralaringizdagi nikohsizlarni va qulu cho‘rilaringizdan solihlarini nikohlab qo‘ying. Agar faqir bo‘lsalar Alloh ularni o‘z fazlidan boy qilur. Alloh qamrovi keng, biluvchi Zotdir", degan ("Nur" so‘rasi 32-oyat).

Abu Ayyub (r.a) dan rivoyat qilingan hadisda "Nabiy alayhissalom: "To‘rt narsa Rasullarning sunnatlaridan: hayo, xushbo‘y sepish, misvok va nikoh", dedilar", deyiladi. Bu o‘rinda ushbu to‘rt narsa Odam alayhissalomdan tortib, Muhammad (s.a.v) gacha bo‘lgan barcha payg‘ambarlarning sunnati ekanligi ta’kidlanmoqda (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022:340). Rasululloh (s.a.v) boshqa bir hadisi

shariflarida: “Nikoh mening sunnatimdir. Bas, kim mening sunnatimdan yuz o‘girsa, mendan emas”, dedilar (Sunan ibn Majah-3, 2007:58-59). Rasulullohning (s.a.v) ushbu so‘zlari imkoni bo‘la turib oila qurmaslik, nikohlanmaslik musulmon kishining ishi emasligini anglatmoqda.

Islom shari’atda oila qurishni ixtiyor qilganlar uchun nikohning bir nechta rukn, shartlari qo‘yiladi. Nikohning rukni masalasida hamma mazhablar bir ovozdan iyjob va qabulni birinchi o‘ringa qo‘yganlar. Bunda nikohlanmoqchi bo‘lgan ikki tarafdan birining nikohlanish rag‘batini bildirishi (iyjob) va ikkinchisining o‘sha rag‘batni qabul qilishi (qabul) bilan yuzaga chiqadi. Kelin-kuyov bir-birlarining iyjob va qabul haqidagi lafzlarini eshitishlari shart. Shuningdek, kelin-kuyovning iyjob va qabul haqidagi lafzlarini o‘sha yerda hozir bo‘lgan guvohlar ham eshitishlari shart.

Hanafiylik mazhabida faqat iyjob va qabulgina nikohning rukni hisoblanadi. Qolgan mazhablarda bunga qo‘shimcha ravishda xotin, er, valiyni ham qo‘shib, to‘rt ruknni sanaydilar.

Nikohning to‘g‘ri bo‘lishi uchun yuzaga chiqishi kerak bo‘lgan shartlar: nikoh masalasi asliy va far’iy ravishda mavjud bo‘lishi lozim (nikohlanayotgan ayol erkakka abadiy ravishda ham, vaqtinchalik ham harom bo‘lmasligi); iyjob va qabulda ishlatilgan iboralar abadiylikni ifoda qilishi shart; guvohlik (iyjob va qabulsiz nikoh bo‘maganidek, kamida ikki erkak kishi yoki bir er va ikki ayol kishi guvohligisiz ham nikoh bo‘lmaydi; ikki tomonning roziligi; valiy (odatda, ota yoki uning o‘rniga kelgan shaxs valiy bo‘ladi. Valiylar tartibi, ota yo‘q bo‘lsa, bobo, tug‘ishgan aka-uka, ota bir aka-uka, ona bir aka-uka, amaki bo‘lib ketaveradi).

Nikohning birinchi boqsqichi – kelishish, unashtirish (xutba) bo‘lib, unda kuyov o‘zi yoki valisi orqali kelinning otasi, valiysi yohud ishonchli kishisiga taklifini aytadi. Erning ayolga ajratadigan mulki (mahr) va nikoh shartnomasi (sig‘a) ga kiruvchi boshqa shartlar xususida ham shu vaqtda kelishib olinadi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlar – kelinni kuyov xonadoniga uzatish (zifof) va to‘y tantanalari (valima) (Islomov Z., 2017:306).

Nikoh shariatga Qur’oni karim, sunnati Nabaviya va islom ummatining ijmoyi orqali kirgan. Kishilarning turli holatlariga qarab, nikohda bo‘lish hukmi ham turlicha bo‘ladi. Bular: farz-vojib, harom, makruh, sunnati muakkada, muboh (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021:39).

Qur’on oyatlari va hadislar orqali nikoh nafaqat er va ayol orasidagi muqaddas rishta, balki ruhiy taskin, muhabbat, rahmat hamda o‘zaro hamkorlikka asoslangan barqaror oila tizimining asosi ekanligi ham ma’lum bo‘ladi. Nikohning rukn va shartlari, guvohlik, tomonlar roziligi, iyjob va qabul kabi talablar orqali shariat nikohni tartibli, adolatli va mas’uliyatli qamrovda muhofaza qiladi. Nikohdagi shaxs va uning jufti halolining haromdan saqlanishi, inson sulolasini inqirozga uchrab yo‘q bo‘lib ketishdan himoya qilish, naslu nasabning boqiy qolishi va muhofaza qilinishi, jamiyat qurishning asosi bo‘lgan oilani barpo qilish, shuningdek, oila va jamiyat a’zolari orasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va ularni rivojlantirish nikohdagi eng katta hikmatlardan bo‘lgani uchun ham u islom shariatiga kiritilgandir.

MUHOKAMA

Nikoh – bu nafaqat ikki insonning birlashuvi, balki ularning e’tiqodi, madaniyati va urf-odatlarini ham birlashtiruvchi muqaddas rishtadir. Jumladan, islom va yahudiylikda nikoh masalasi shunchaki shaxsiy munosabat emas, balki diniy majburiyat va axloqiy tizimning muhim bo‘g‘inidir. Ushbu dinlar manbalarida nikohga targ‘ib, er-xotin majburiyatlari kabi masalalar bilan bir qatorda erkak kishilar uchun uylanishi taqiqlangan ayollar toifalari xususida ham ko‘rsatmalar mavjud.

Yahudiylik dinida nasab va or-nomusni saqlash, oila qurish va jamiyatni bir butun qilish uchun ko‘plab qonun-qoidalar belgilab qo‘yilgan. Yahudiylik shariati bokira va iffatli qizga uylanish zarurligini buyurib, erdan ajrashgan va beva ayollarga uylanishdan qaytaradi. Bu haqda muqaddas manbalarida quyidagicha bayon etiladi: “Oliy ruhoniy faqat bokira qizga uylansin. Beva, eridan ajralgan yoki fohishalik qilib bulg‘angan ayolni xotinlikka olmasin. O‘z qavmidagi bokira qizga uylansin” (Levilar 21:13-14).

Yahudiy shariatiga ko‘ra, barcha ayollar bilan ham nikoh qurish mumkin emas. Masalan, yahudiylarning muqaddas matnlaridan biri – “Mishna” ning ayollar haqidagi bo‘limida qanday ayollar bilan nikoh tutish taqiqlangani batafsil bayon qilingan. Erkak kishiga mahram hisoblanuvchi ayollar jamoasiga uylanish taqiqlangani haqida Levilar kitobida ham ko‘rsatib o‘tilgan: “Tug‘ishgan yaqin qarindoshingiz bilan yotmang. Men Egangizman. Onangiz bilan yotib, otangizning sha’niga dog‘ tushirmang… Xotiningizning singlisini xotiningizga kundosh qilmang. Xotiningiz tirik ekan, uning singlisi bilan yotmang” (Levilar 18:6-18) (2024:113-143 , محمد رفعت إبراهيم إسماعيل).

Yahudiylik shariatida yuqoridagi matnlardan kelib chiqib nikohlanishi ta’qiqlangan ayollar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1. Abadiy nikohi ta’qiqlangan ayollar

a) Erkakning “asl qarindoshlari”, bu guruhga odatda onasi, buvisi (ota-ona tomondan ikkisi ham) kiradi.

b) Kishining “nasldan kelgan” farzandlari; Tavrotga ko‘ra, erkak o‘z qizi, nevara qizi bilan nikohlana olmaydi.

c) Kishining ota-onasi tomonidan bo‘lgan boshqa qarindoshlari; O‘z opasi bilan, hatto, u faqat otasi yoki onasidan bo‘lsa ham, turmush qura olmaydi. Shuningdek, amakilari yoki tog‘alari farzandlari bilan ham nikoh qurish mumkin emas.

2. Vaqtincha nikohi ta’qiqlangan ayollar

a) Ayolning vafoti bilan bekor bo‘ladigan ta’qiq;

Yahudiy shariatida ayrim ayollar bilan nikoh ularning hayotlik vaqtida ta’qiqlangan bo‘lsa-da, bu ta’qiq ularning vafoti bilan bekor bo‘ladi. Masalan: Xotinining opasi, xolasi yoki onasi – bu ayollar bilan turmush qurish, xotini hayotligida taqiqlangan. Ammo xotin vafot etgach, erkak ularning har biri bilan nikoh qura oladi.

b) Ayolni taloq qilish (uydan chiqarish) bilan bekor bo‘ladigan ta’qiq;

Yahudiy shariatida erkak o‘z xotinini “uydan chiqarish” orqali taloq qiladi. Taloq qilish bilan ayol ilgari taqiqlangan bo‘lgan odam bilan nikoh qurishi mumkin bo‘lib qoladi. Ya’ni, agar erkak o‘z xotinini taloq qilsa, u ilgari uylanishi ta’qiqlangan inson bilan turmush qura oladi. Masalan, uning opasi bilan (As’ad Sahmaroniy, 2001:193).

Islom dinida “mahram” tushunchasi bo‘lib, u “hurmat” o‘zagidan olingan, lug‘atda “taqiqlangan” ma’nosini bildiradi. Bu tushuncha islom huquqshunosligida ikki ma’noda qo‘llanilgan: keng ma’noda man etilgan narsalarga ishora qiladi, tor ma’noda esa, turmushga chiqishi man etilgan ayollarni nazarda tutadi (Fahrettin Atar, 2020:6). Islom ta’limotiga ko‘ra har bir erkakka bir necha toifa ayollarning nikohi harom qilingan, erkak kishi ularga uylanishi mumkin emas, bunday qilishi harom hisoblanadi. Kim shu ishni qilsa, gunohkor bo‘ladi. Mazkur gunohga qolmaslik uchun har bir musulmon bu masalani yaxshilab tushunib olishi kerak (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021:41).

Islom huquqida nikohi harom bo‘lgan ayollar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1. Nikohi abadiy harom qilingan ayollar.

Qur’oni karimda (“Niso” surasi, 23-oyat) yaqin qarindoshlar bilan nikohni taqiqlanishi haqida bayon etilgan. Ushbu taqiqlarning maqsadi – nasl-nasab pokligini saqlash va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashdan iborat. Bu guruhga kiruvchi ayollar ham uch turga bo‘linadi, bular:

a) nasab yo‘li bilan nikohi abadiy harom qilingan ayollar;

– ona, qiz, opa-singil, ammalar, xolalar, aka-ukalarniing qizlari, opa-singillarning qizlari.

b) emizish yo‘li bilan nikohi abadiy harom qilingan ayollar;

Sut orqali harom bo‘lgan ayollar haqida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) hadislarida: “Sut emganlik orqali harom bo‘lgan ayollar, nasab orqali harom bo‘lgan ayollar kabidir” (Buxoriy rivoyati) deyilgan.

– emizgan ayol, emikdosh qiz, emikdosh opa-singillar, emikdosh ammalar, emikdosh xolalar, emikdosh aka-ukalarning qizlari, emikdosh opa-singillarning qizlari, emikdosh qaynonalar, emikdoshlik bo‘yicha o‘gay ona va momolar, emikdosh farzandlarning xotinlari, xotini emizgan qiz.

c) qudachilik asosida nikohi abadiy harom qilingan ayollar;

– o‘gay onalar, farzandlarning xotinlari, qaynonalar, o‘gay qizlar (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021:52).

2. Nikohi muvaqqat (vaqtincha) ta’qiqlangan ayollar.

Bu toifaga erkak kishi o‘zi uch taloq qilgan ayoli, boshqa erkak bilan nikohda bo‘lgan yoki idda davridagi ayollar, opa-singilni jamlab, bir paytda nikohida saqlash, amma yoki xola bilan jiyanni jamlash, shuningdek, samoviy dinga e’tiqod qilmaydigan ayolga uylanishi kabi holatlar kiradi.

Qur’onda qon (nasab), sut (rada) va nikoh tufayli nikohi man etilgan ayollar haqida “Niso” surasi 23-24oyatlarda quyidagicha keltiriladi*:* “Sizlarga onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan onalaringiz, emikdosh opa-singillaringiz, xotinlaringizning onalari, o‘zingiz qovushgan xotinlaringizning qaramog‘ingizdagi qizlari – agar u (xotin) lar bilan qovushmagan bo‘lsangiz, sizga gunoh yo‘q – va pushtingizdan bo‘lgan o‘g‘illaringizning xotinlari hamda opa-singilni jamlamog‘ingiz harom qilindi. Avval o‘tgani mustasno. Albatta, Alloh G‘afur va Rohiymdir. Qo‘llaringiz mulk qilib olganlardan boshqa erli ayollar ham (harom qilindi. Bu) sizlarga Allohning bitganidir” (Mansur A., 2021:624).

Yahudiylik dunyodagi nikoh institutiga eng ko‘p ahamiyat bergan dinlardan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nikohga doir e’tiborni tortuvchi tushunchalardan biri – “nikoh shartnomasi”, ya’ni ketubadir. Bu nikoh shartnomasida tomonlar – ayol (kefa) va erkak (ko‘ya) ishtirok etadi (İçten Erdinç, 2018:14). Ketuba yahudiylikda erkakning o‘z xotiniga nisbatan moliyaviy mas’uliyatlarini o‘z ichiga olgan,

ajrim yoki eri vafot etganda ayolni iqtisodiy jihatdan himoya qiluvchi rasmiy bitim sifatida ta'riflanadi (Kaplan Aryeh, 1983:99).

Ketubaga doir qoidalar Talmudning "Ayollar Kitobi" (Seder Neshim) ning 13 bobdan iborat "Ketubot" risolasida batafsil bayon qilingan. Risolada ketubaning: mazmuni, tuzilishi, moliyaviy bandlari, nikoh davomida va ajrimdan keyingi ahamiyati batafsil bayon etilgan.

Bugungi kunda yahudiylar orasida ketuba odatda nikohning rasmiy qismi – hupa marosimida o'qib eshittiriladi va imzolangan holda kelin tomoniga topshiriladi. Ketuba ayol tomonidan nikoh davomida saqlanadi va u bekor qilinmaguncha o'z kuchini saqlaydi. Ketuba bilan bog'liq tushunchalar:

"Ikar" – asosiy ketuba miqdori. Ketubaning eng asosiy unsurlaridan biri — ikar, ya'ni "asosiy ketuba summasi"dir. Bu summaning belgilanishidagi asosiy maqsad – ayolning ajrimdan keyin iqtisodiy jihatdan himoyasiz qolishining oldini olishdir.

"Nedunya" – ayolning cheyizi. Ayol nikohga o'z oilasidan olib keladigan cheyiz "nedunya" deb ataladi. Nedunya tarkibiga: kiyim-kechak, zargarlik buyumlari, uy jihozlari, xizmatkorlar (qadim davrlarda), pul-mulk, oiladan berilgan hujjatlar kirgan bo'lishi mumkin (دمحأ قوزوب، 2019).

Ketuba matni odatda muqaddima yoki kirish qismi bilan boshlanadi. Bu qismda hujjatning rasmiyligi tasdiqlanadi, nikohning diniy huquqiy doiradagi o'rni eslatiladi, taraflarning roziligi qayd etiladi. Ba'zi jamoalarda kirish qismida Xudoning nomi zikr qilinadi. Boshqa hududlarda esa bu ibora ishlatilmaydi. Olimlar bu farqni arab va islom madaniyatining ta'siri bilan izohlaydi. Ketuba sana bilan boshlanadi. Shuningdek, nikoh tuzilgan shahar yoki joyning nomi, kamida ikkita guvohning ismi va imzosi albatta ko'rsatiladi.

Yahudiylik tarixida ham bu amaliyot uchraydi. Masalan, mohar o'rnini bosuvchi tarzda Yoqub payg'ambar Labanning ikki qizini olish uchun unga yetti yil xizmat qilgan edi. Qizni olish uchun yo ma'lum pul to'lash zarur bo'lgan, yoki qizning otasiga bir muddat xizmat qilish talab etilgan. Keyinchalik bu qoidaning bekor qilingani va moharning endi bevosita qizga to'lanadigan bo'lgani ko'rinadi. Asosiy maqsad – erning xotinini ilgari bo'lgani kabi osonlikcha taloq qila olmasligini ta'minlash, ya'ni ajrimni qiyinlashtirishdir. Shundan so'ng moharlar nikoh chog'ida emas, balki ajrim vaqtida to'lanadigan bo'ldi. Bu yangilikning muallifi Rav Shimon ben Shetah hisoblanadi.

Mohar qancha bo'lishi masalasiga Rav Meirning quyidagi so'zi oydinlik kiritadi: "Kimki bokira qizga mohar sifatida 200 zuzdan kam, yoki beva ayolga 100 zuzdan kam bersa, bu zino hisoblanadi". Kohen qizlarining mohari – bokira qizlarga belgilangan miqdorning ikki baravari (400 zuz) bo'lgan (Arslantaş, 2010:355).

Yahudiylar orasida keyingi davrlarda ayolning kimligidan qat'i nazar, minimal mohar 25 zuz (ya'ni avvalgi hisobning 1/8 qismi) etib belgilangan. Bu holat ayniqsa, Islom diyorlarida yashagan yahudiylar orasida ko'p uchragan. Shunday qilib: 200 zuz = 25 zuz sifatida mustahkamlangan. Rabbaniy manbalarga ko'ra: bokira qiz uchun eng kami 25 zuz, beva ayol uchun 12,5 zuz (ya'ni yarmi) mohar belgilangan (Friedman, 1981:251).

Kelin va kuyov o'zaro kelishib, moharning belgilangan miqdorini kamaytirishi mumkinmi yo'qmi – bu Tannayimlar o'rtasida bahs bo'lgan. Eng keskin qarash Rabbi Meirga tegishli. Unga ko'ra, oldindan belgilangan standart miqdordan kamroq mohar berilsa, bu turmushni zino holatiga tenglashtiradi.

Mohar tarixi davomida juda muhim o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Eng muhim burilishlardan biri – Rabbi Shimon ben Shetax islohati: dastlab, "asl ma'nodagi mohar" – kelinning otasiga to'lanadigan pul edi. Keyinchalik bu pul bevosita ayolning o'zi foydasiga "kafolat" sifatida ko'riladigan bo'ldi. Yana bir o'zgarish: mohar avval nikoh vaqtida to'lanardi; Shimon ben Shetaxdan keyin esa u ajrim (taloq) paytida to'lanadigan kafolatga aylandi. Shundan so'ng: Kesef kidushin (pul bilan nishonlash) prinsipiga binoan, bitta peruta qiymatidagi pul nikoh paytida kelinga berilar edi. Keyinroq bu pul o'rnini nikoh uzugi egalladi: uzuk ramziy jihatdan "oldindan to'langan mohar" o'rniga o'tadi.

Islomda erning xotin oldidagi burchlari ikki qismga bolinadi: moliyaviy burchlar va muomalaviy burchlar. Moliyaviy burchlar mahr, nafaqa va to'ydan iborat.

"Mahr" nikoh aqdi yoki er-xotin bo'lish bilan er zimmasiga yuklanadigan va xotiniga berishi lozim bo'lgan moldir. Mahr turli nomlar bilan nomlanadi. Qur'oni karimda mahr so'zi o'rniga sadaq, sadaqa, ajr, fariza, nihla kabi so'zlar ishlatilgan (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2023:130).

Alloh taolo "Niso" surasida quyidagicha marhamat qiladi: "Ayollarga mahrlarini ko'ngildan chiqarib beringlar" (94-oyat). Ushbu oyati karima erga mahr berish vojib ekanini anglatuvchi to'rtta oyati karimadan biridir. Aqdi nikoh bo'lishi bilan mahr berish vojib bo'ladi. Agar oilaviy munosabatlarga kirishmay ajrashgan bo'lsalar ham. Lekin mahr nikohning shart yoki ruknlaridan emas. Usiz ham nikoh bog'lanaveradi, oldi-berdi keyinroq bo'lsa ham zarari yoq.

Alloh taolo "Niso" surasida shunday deydi: "Ulardan bahralanishingiz hisobiga farz qilingan mahrlarini ularga bering. Ularni ahllarini izni ila mahrlarini ma'ruf ila berib, nikohingizga oling" (24-25-oyat).

“Bani Fazoralik bir ayol bir juft kavush (mahr evazi) ga erga tegdi. Rasulullоh (s.a.v.) unga: “O‘zingni va molingni bir juft kavush evaziga bag‘ishladingmi?” dedilar. “Ha”, dedi. Bas, u zot buni joiz sanadilar”. Termiziy rivoyat qilgan va sahih degan.

Shunga binoan er-xotin o‘zaro kelishsalar, ular rozi bo‘lgan miqdordagi mol mahr bo‘laveradi. Hanafiy mazhabida kishilar ixtilof qilib yurmasliklari uchun “Mahrning ozi o‘n dirham bolsa yaxshi”, deyilgan. Chunki shariatda bir narsaga arzigulik eng oz molning miqdori shudir. Shuningdek, mahrning ko‘pini ham chegarasi yo‘q. Ammo ulamolar “Mahrning ko‘pi on ikki uvqiyadan oshmagani ma’qul”, deganlar. Hadisda keltirilgan qiymatlar bugungi o‘lchov birliklarida ifodalansa, o‘n dirham taxminan 30 gramm, o‘n ikki uvqiya esa 1428 gramm kumushning qiymatiga tengdir.

Jobir (r.a) qilgan rivoyatda “Agar erkak kishi ayolga mahrni hovuchini to‘ldirib, taom berish ila ado etsa, ayol unga halol bo‘lur”, deyilgan. Bu esa mahr uylanishdagi asosiy maqsad emas, balki er xotininnig nafaqasini doimiy ravishda ta’min etib turishini o‘z bo‘yniga olganiga ishora ekanligini ko‘rsatadi.

Mahrning shartlariga mahrga beriladigan mol qiymatga ega, mol deyishga arzigulik narsa bo‘lishi, halol va pok bo‘lishi, birovdan tortib olinmagan bo‘lishi, noaniq bo‘lmasligi kerak (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022:108-109).

Mahr faqat pul bo‘lishi shart emas, moliyaviy qiymatga ega narsa bo‘lsa bo‘laveradi. Hovli-joy, yer, hayvon, tijorat moliga o‘xshash narsalar shular jumlasidandir. Mahrning hammasi ayolning mulki hisoblanadi. Ayol uni o‘zi xohlaganicha tasarruf qiladi.

Mahrni oldindan berib qo‘yish yoki berishni keyinga surish mumkin. Shuningdek, bir qismini oldindan berib, bir qismini keyinga surish ham mumkin. Ammo berish muddati noaniq bo‘lmasligi kerak. Uzoqmi, yaqinmi, baribir, muddatni aniq belgilash lozim.

Nikohdan so‘ng xotinning nafaqasi erga vojib boladi. “Nafaqa” so‘zi lug‘atda “yaxshilikka mablag‘ chiqarish” manosini anglatadi. Shariatda esa o‘z qaramog‘idagi shaxsni yetarli kiyim, taom, va maskan bilan taminlashdir.

Nafaqaning erga vojib bo‘lishi Qur’on, sunnat, ijmo va aql ila sobit bo‘lgan. Alloh taolo “Taloq” surasida shunday marhamat qiladi: “Rizqi keng kengligidan nafaqa qilsin. Kimning rizqi tor qilingan bo‘lsa, unga Alloh berganidan nafaqa qilsin. Alloh hech bir jonga O‘zi berganidan ortiqcha yuklamas. Alloh qiyinchilikdan so‘ng tezda osonlikni berur” (7-oyat). “Baqara” surasida: “U (ona)larni ma’ruf ila yedirib, kiyintirish otaning zimmasidadir” (233-oyat). “Taloq” surasida: “U (ayol) larga o‘zingiz yashab turgan joydan imkoningiz boricha joy bering” (6-oyat).

Malum bo‘ladiki, er zimmasidagi xotin uchun vojib nafaqalar besh qismdir: taom, kiyim, maskan, agar xotin xizmatkor ishlatib yuradigan toifadan bo‘lsa, xizmatkor olib berishi, tozalik asbob-anjomlari va uyning kerakli jihozlari shular jumlasidandir.

Omir ibn Sa’ddan, u otasidan rivoyat qiladi “Nabiy (s.a.v) dedilar: “Sen ahlingga har qanday nafaqa qilsang, bunga ajr olasan. Hattoki, ayolingning og‘ziga tutgan luqmangda ham”. Imom Ahmad rivoyat qilgan.

Shunda boshqalar uchun odat bo‘lgan oila hayoti uning uchun ibodat darajasiga ko‘tariladi. Masalan, bir kishi “ayolimning nafaqasi shariat boyicha menga vojib edi, shuni bajarishim kerak” deb, ayoliga nafaqa topish uchun halol kasb bilan ishlab yurar ekan, vojib ibodatni ado etayotgan kishi sifatida ajr va savob oladi.

Ajrim nikoh rishtalarining bekor qilinishi bilan bog‘liq diniy va ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi jarayondir. Yahudiylikda bu jarayon get, islomda esa taloq deb ataladi. Har ikkisi ham diniy manbalar asosida shakllangan bo‘lib, nikohning muqaddasligini e’tirof etgan holda, zarurat tug‘ilgan holdagina masalani adolatli yo‘l bilan hal etish uchun qo‘llaniladi.

Yahudiy diniy qonunlarida “Get” (ibr. טגה ko‘pligi “gittin”) – yahudiy diniy qonunlari majmuasi Galaxaga ko‘ra bu nikohni bekor qiluvchi hujjat bo‘lib, erkak tomonidan yozma ravishda ayolga topshiriladi. Dastlab yahudiy shariatida taloq (get) huquqi faqat erkakka berilgan bo‘lsa-da, zamonaviy yahudiy jamiyatida bu huquq er, ayol va shariat tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin deb qaraladi. Ajralish inson hayotining bir bo‘lagi sifatida ko‘rilgan, (Bekar Adrienna, 1993:54) lekin din tomonidan doim ham ma’qullanmagan.

Getning mazmuni – erning ayol bilan nikohni uzish haqidagi yozma bayonidir. U diniy sud (וידה Bet Din) yoki bosh kohen huzurida yozilib, kamida ikki guvoh ishtirokida tasdiqlanadi. Ayolga “get” topshirilgach, u boshqa kishiga turmushga chiqish huquqini oladi.

Yahudiylik dinida buning asoslarini Qonunlar kitobida ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra aytiladiki: “Agar biror kishi uylansa-yu keyinchalik xotinidan birorta uyatli qiliq topib, uni yoqtirmay qolsa, uning qo‘liga taloq xati yozib berib, uyidan chiqarib yuborishi mumkin” (Qonunlar 24:1). Biroq, keyinchalik milodiy 1040-yilda vafot etgan ravvin Gershom ben Yahuda (XI asr, Mainz maktabi rahbari) “Herem de-Rabbenu Gershom” nomli qarorida, agar sudya ajrashishga ruxsat bermasa yoki ayol rozi bo‘lmasa, erkak ayolni o‘z uyidan chiqarib yuborishi mumkin emas deb qaror qilgan. Get ravvin tomonidan berilgan hujjat bilan rasmiylashtirilmaguncha haqiqiy hisoblanmaydi. Ushbu hujjat bilan ajrashgan ayol qayta turmush qurishi mumkin. Busiz unga boshqa turmush qurishga ruxsat berilmaydi.

Demak, Tavrotga ko‘ra dastlab get berish huquqi asosan erkaklar ixtiyorida bo‘lgan. Ammo yuqorida ta’kidlanganidek, bugungi yahudiy jamiyatida get uch taraf tomonidan ham amalga oshirilmoqda.

Erkak, agar aqli raso bo‘lsa va shariatga muvofiq ish tutsa, u ayolini quyidagi hollarda taloq qilishi mumkin: Agar ayolda er nazarida biror nuqson bo‘lsa, hatto faqat yoqimsiz ko‘rinish ham sabab bo‘la oladi; Agar ayolning bokira emasligi isbotlansa; Agar ayolda ketma-ket uch marotaba homila tushishi holati kuzatilsa.

Ayolning taloq huquqi, zamonaviy yahudiy jamiyatida ayol ham muayyan sabablarda taloq talab qilish huquqiga ega bo‘lgan. Bular: Er olti oy davomida o‘z burchini bajarmasa; Er ayolini moddiy jihatdan ta’minlamasa; Er yaxshi muomala qilmasa, axloqan buzuq bo‘lsa; Er sadoqatli bo‘lmay, boshqa ayolga uylansa; Ayol eriga nisbatan nafrat his qilsa; Er bepusht bo‘lsa.

Shariat qonuni bilan taloq. Bunday turdagi taloq esa shariatning o‘zi tomonidan zarur deb topilgan quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: Ayol zino qilganligi isbotlansa; Ayol 10 yil davomida bepusht bo‘lsa; Er yoki ayoldan biri tutqanoq (epilepsiya) yoki boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan bo‘lsa; Er ayolini ursa; Er ayolining hayoti uchun zarur oziq-ovqat bilan yoki moddiy jihatdan ta’minlay olmasa (.د صالح محمد محي الدين الكيلاني، ٤١٠٢).

Ajrim tartibi esa, er va xotin ajrim qonun-qoidalarini bajarish uchun yahudiy ravvinining oldiga borishadi. Ravvin, ular o‘rtasidagi ajralish haqiqatan ham sodir bo‘lganligini e’lon qiladi hamda erkak va ayol ajrim to‘g‘risidagi hujjatni imzolaydi. Bu ayol endi boshqa yahudiy kishisiga turmushga chiqishi mumkin. Shuningdek, ajrashgan ayol ajrashganidan keyin yoki ikkinchi eri vafot etgandan keyin avvalgi eriga qayta nikohlanishi taqiqlanadi. Bu haqda Qonunlar kitobining 24-bobida aytilgan. “Ayol erining uyidan ketib, boshqa erga tegsa-yu, bu eri ham uni yoqtirmay qolsa, ayolning qo‘liga taloq xati yozib berib, uyidan chiqarib yuborsa yoki ayolning keyingi eri o‘lib qolsa, birinchi eri ayolga qaytadan uylanishi mumkin emas” (Qonunlar 24:2-4).

Isroildagi yahudiy ravvinligi va unga qarashli diniy sudlar nikoh va ajrimlarni ta’sis etish yoki rad etish, shuningdek, yahudiy qonunlariga muvofiq oilani sof yahudiy deb e’lon qilish kabi vakolatga ega bo‘lgan yagona tashkilotdir.

Shuningdek getga oid qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Get ikki tomonning o‘zaro va erkin roziligi bilan bo‘lishi kerak, zo‘rlik yoki majburlash bilan emas. Ravvin Gershom: “Erkakning xotinining roziligisiz taloq qilishi haromdir”, degan. Agar er-xotin ajralishga rozi bo‘lsa, ular getga oid marosimlari va tartiblarini bajarish uchun ravvinatga shaxsan o‘zlari kelishlari kerak.

2. Ajralish to‘g‘risidagi guvohnoma er-xotinga ko‘rsatilgan holda, ravvin huzurida tomonlarning ishtirokida, qo‘lda yozilishi kerak. Bugungi kunda ravvinat ism va sanalar uchun bo‘sh joy qoldirilgan, ma’lum ko‘rinishdagi ajrim guvohnomasini tayyorlashga ruxsat berib amaliyotni ancha soddalashtirgan.

3. U yangi hujjat sifatida tayyorlanishi kerak va matnni o‘chirish imkoniyati bo‘lmasligi kerak.

4. U yerga biriktirilgan obektga (masalan, anjir bargi) yozilmasligi kerak.

5. Get eski sana bilan yozilmasligi kerak.

6. Er-xotinga ajrim to‘g‘risidagi guvohnoma topshirilishi shart; Ulardan birigini yolg‘iz o‘zi olishga haqli emas.

Ushbu hujjatda bolani vasiylik va g‘amxo‘rlik qilish, shuningdek, mulkni taqsimlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi ham mumkin. Hujjatda keltirilgan qoidalarga rioya qilmaslikni talab qiladigan yagona shart – tomonlardan birining nikohni davom ettirishga bo‘lgan istagidir.

So‘ngi masalalardan biri havchanahdir. Yahudiy diniy qonunlarida idda (ibr. havchanah) – ayol taloq qilingach yoki eri vafot etgach qayta turmushga chiqishdan oldin o‘tashi lozim bo‘lgan kutish davrini anglatadi. Tavrot va Talmud matnlarida bu muddat haqida aniq to‘xtalib o‘tilmagan bo‘lsa-da, keyinchalik ravvinlar tomonidan bu borada ma’lum qoidalar ishlab chiqilgan.

Mazkur qoidalarga ko‘ra, taloq qilingan yoki beva qolgan ayol yangi nikohga kirishdan oldin 90 (to‘qson) kun kutishi shart. Bu muddat ichida taloq kuni ham, yangi nikoh kuni ham hisobga olinmaydi. 90 kunlik kutish muddati – ayolning homiladorligi aniqlanishi va nasabning aralashib ketmasligi uchun belgilangan. Bu qoida ayolning yoshi, sog‘lig‘i yoki eri bilan yashagan yashamaganligidan qat’i nazar, barcha hollarda amal qiladi. Agar ayol homilador bo‘lsa, uning iddasi tug‘ish bilan yakunlanadi. Agar uning emizikli farzandi bo‘lsa, ayrim diniy manbalarda ayolning bola ikki yoshga to‘lguncha kutishi lozimligi qayd etiladi. Agar bola shu muddat ichida vafot etsa, idda muddati bekor bo‘ladi.

Bundan tashqari, yahudiy qonunlariga ko‘ra, ayoli vafot etgan erkak uchun ham ma’lum kutish davri joriy etilgan. U yangi nikoh tuzishdan oldin uchta diniy bayram (masalan, Yom Kippur, Rosh Ashona va boshqalar) o‘tmaguncha turmush qurmasligi tavsiya etiladi.

Islom nikoh va taloqni adolatli, insofli va purhikmat nizom ila muqarrar qilgan. Bu nizom ifrot (haddan ziyod bo‘sh qo‘yish) va tafrit (haddan ziyod mahkam tutish)

dan holidir. Islom shariati taloqni butkul harom qilib ham qo‘ymaydi va hech qanday sababsiz ommaviy tarzda ruxsat ham bermaydi. Balki, taloqqa ijozat bera turib, shunday deb ta’kidlaydi: Ibn Umar (r.a) dan rivoyat qilinadi: “Nabiy (s.a.v): “Alloh azza va jallaga eng yomon ko‘rilgan halol taloqdir”, dedilar” (Abu Dovud va Hokim rivoyat qilganlar. Hokim sahih sanagan).

“Taloq” so‘zi lug‘atda “moddiy va ma’naviy tugunni yechish” ma’nosini anglatadi. Shar’iy istilohda esa maxsus lafz ila nikohni ketkazish yoki halolligini nuqsonga uchratish taloq deyiladi. Abdulhay Laknaviy “Hidoya” hoshiyasida quyidagilarni yozgan: “Taloq lug‘atda ko‘tarish, faqihlar istilohda nikoh bitmi (ijob va qabul) ni maxsus lafzlar vositasida ko‘tarib, nikoh rishtasini tugatish nomiga taloq” deyiladi (Burhonuddin Marg‘inoniy, 2021:353).

“Maxsus lafz” dan murod – taloq yoki uning ma’nosini anglatuvchi lafzdir. “Nikohni ketkazish” esa “nikoh aqdini yechib, oradagi ma’naviy bog‘lanishni yo‘qotish” deganidir. Bu uch taloq ila yuzaga kelib, undan so‘ng taloq qilingan ayol o‘zini taloq qilgan kishiga halol bo‘lmay qoladi. “Halolligini nuqsonga uchratish” esa er bir taloq qo‘ysa, uch taloq haqqidan bitta kamayib, xotinning unga halolligi nuqsonga uchragan bo‘ladi.

Taloq faqat mukallaf erdan voqe bo‘ladi. Garchi u mast yoki qul bo‘lsa ham. Uning hojasidan va uyqudagi kishidan voqe bo‘lmaydi (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021:469). Demak, taloqni tushishi uchun to‘rt shart mavjud:

1) taloq oqil va balog‘atga yetgan er tomonidan voqe bo‘lishi kerak. Rasululloh (s.a.v): “Sabiy va majnunning talog‘idan boshqa barchaning talog‘i joizdir” deganlar. Uning qul yoki hur bo‘lishida farq yo‘q. Ota bolasining xotinini taloq qilishi mumkin emas. Bunday holatda taloq tushmaydi. Chunki erdan o‘zga hech qanday shaxs ayolga nisbatan taloq haqqiga ega emas;

2) uyg‘oq, xushi o‘zida bo‘lishi. Uxlab yotgan odam, balog‘at yoshiga yetmagan bola, jinni va esi past kishi ham xotinini taloq qilsa tushmaydi. “Esi past” deganda befahm, almoyi-aljoyi gapiradigan, chora-tadbirni bilmaydigan, lekin boshqalarni urib-so‘kmaydigan shaxs ko‘zda tutiladi. Ammo bir odamning esi o‘z ixtiyori ila qilgan tasarrufi tufayli ketgan bo‘lsa, masalan mast qiluvchi ichimliklar ichgani uchun esini yo‘qotgan bo‘lsa, talog‘i tushadi;

3) taloq qilingan ayol bilan shar’an nikohdan o‘tgan bo‘lishi;

4) zohiran va botinan taloq nisbatini nikohidagi ayolga berishi.

Shu o‘rinda eslatib o‘tish kerakki, ayollarga taloq ixtiyori berilmagan. Albatta, bu manfaat va hikmatlardan holi emas. Ammo ularda nikohni tugatish borasida berilgan ixtiyorlar mavjud. Ya’ni unda taloq ixtiyori yo‘q degani, butunlay nikohini tugata olmaydi, erining zulmi, sitami ostida majbur holda qoldirilgan degani emas. Bu masalada islom shariati agar er-xotin birga yashashga ilojlari qolmasa, birga turadigan bo‘lsalar gunoh ish sodir bo‘lishi muqarrar bo‘lsa, xotinning erdan ko‘ngli to‘lmasa, ayollarga taloqni mahr evaziga sotib olish, ya’ni xulu imkonini bergan. Alloh taolo “Baqara” surasi, 299-oyatda shunday marhamat qiladi: “Bas, agar ikkovlarining Allohning chegaralarida tura olmasligidan qo‘rqsangiz, xotin bergan evazda ikkovlariga gunoh yo‘qdir. Ushbular Allohning chegaralaridir. Bas, ularga tajovuz qilmang”.

So‘z bilan yozuv o‘rtasida ba’zi o‘rinlarda xususiy sabablarga ko‘ra farq bo‘lsa-da, islom shariatida og‘zaki ravishda qo‘yilgan taloqqa qanday hukm berilgan bo‘lsa, yozma ravishda qo‘yilgan taloqqa ham shunday hukm belgilangan. Chunki ba’zi o‘rinlarda yozma taloq zarur bo‘ladi. Masalan, soqov kishi yozishni bilsa uni imo-ishora tarzida qilgan talog‘i isobga olinmaydi. Balki yozma talog‘i e’tiborlidir. Shuningdek, yozma taloqning ikki ko‘rinishi bor: er o‘zi taloq xatini yozishi va boshqa birortasiga yozdirishi.

Ibn Abbos (r.a) dan rivoyat qilinadi: “Qachon erkak kishi o‘z xotinini taloq qilsa, agar uch taloq qilsa ham, uni qaytarib olishga haqli edi. So‘ng bu Alloh taoloning “Taloq ikki martadir. So‘ngra ma’ruf ila ushlab qolish yoki yaxshilik ila qo‘yib yuborish” degan oyati ila nasx qilindi”. “Sunan” egalari rivoyat qildilar.

Johiliya davrida taloqning adadi chegaralanmagan edi. Erkak kishi xotinini xohlaganicha qo‘yib yuborar va xohlaganicha yarashib olar edi. Avval aytib o‘tilganidek, bu ishda xotin kishilarga nisbatan zulm bor edi. Nikoh va oilaviy robita o‘yinchoqqa o‘xshab, qadri qolmagan edi. Shuning uchun Alloh taolo yuqoridagi hadisda keltirilgan oyatni nozil qilib, erkak kishiga faqat uch taloqning haqqini berdi.

Bir taloq qilinganidan keyin qayta yarashsa bo‘ladi. Ikkinchi taloqni qilganidan keyin ham yarashsa bo‘ladi. Uchinchi taloqdan keyin esa yarashish mumkin emas. Oyat davomida “So‘ng agar uni taloq qilsa, bundan keyin boshqa erga tegmaguncha, unga halol bo‘lmas”, deyilgan.

Yani, uch taloq qilingan ayol boshqa erga tegib, o‘sha ikkinchi er bilan to‘laqonli oilaviy hayot kechirib, ikkinchi erdan o‘lim yoki taloq tufayli ajrab, iddasi chiqqanidan so‘nggina birinchi erga halol bo‘ladi. U er mazkur ayolni xuddi yangi uylanayotgan odam nima qilishi lozim bo‘lsa, o‘shani qilib, qaytadan nikohlab olsa bo‘ladi.

Yana bir jihati bir lafz bilan uch taloq qo‘ysa (“uch taloqsan”, “taloq qildim, taloq qildim, taloq qildim”), uch taloq tushadimi yoki bir taloqmi, degan masala.

Jumhur ulamolar, jumladan, to‘rt mazhab fuqaholari ham “Bir lafz bilan aytilgan uch taloq uch taloq hisoblanadi, bunday holda er-xotin ajrashadi, qayta yarashish imkoniga ega bo‘lmaydilar”, deganlar.

Islomda ayol erining vafotidan keyin yoki eri bilan ajrashganidan so‘ng saqlashi lozim bo‘lgan muddat – iddada bo‘ladi. Bu hukm shariatga kiritilishi bir necha hikmatlarga egadir: Birinchisi – eridan ajrashgan ayol homiladormi, yo‘qmi ekani aniqlanadi. Shu bilan nasl-nasab aralashib ketishining oldi olinadi. Ikkinchisi – o‘lgan erning hurmati bajo keltiriladi. Uchinchisi – eri bilan o‘tkazilgan oilaviy hayotning hurmati yuzasidan ham darrov boshqa erga tegib ketmay, idda o‘tiriladi (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2023:394).

Alloh taolo: “Taloq qilingan ayollar o‘zlari uch quru’ kutarlar. Agar Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsalar, ularga Alloh rahmlarida xalq qilgan narsani berkitishlari halol bo‘lmas”, degan (“Baqara” surasi, 228-oyat).

Bu oyatda “quru’” so‘zi ikki xil ma’noda – poklik va hayz ma’nolarini anglatadi. Hanafiy mazhabi hayz ma’nosini olgan. Shuning uchun ushbu mazhab ulamolari “Eri taloq qilgan xotinnning iddasi taloqdan so‘ng uch marta hayz ko‘rgach, uchinchi hayzidan pok bo‘lishi bilan tugaydi”, deydilar. Agar ayol homilador bo‘lsa, farzandini dunyoga keltirishi bilan idda davri tugaydi.

NATIJA

Islom va yahudiylik manbalarida keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, mazkur dinlarda nikohi ta’qiqlangan ayollar ro‘yxatida umumiylik kuzatiladi, xususan, nasl pokligi, axloqiy mezonlar va diniy marosimlarda muvofiqlik mavjud. Biroq, islomda sut orqali, emikdoshlar orasidagi mahramlik ham alohida o‘ringa ega, yahudiylikda esa bu tushuncha uchramaydi. Yahudiylikda ruhoniylarga qo‘yilgan o‘ziga xos cheklovlar bo‘lib, bu kabi qarashlar islomda mavjud emas. Islomda fiqhiy tafsilotlar orqali ba’zi ta’qiqlar vaqtincha yoki shartli bo‘lishi mumkin bo‘lsa, yahudiylikda bu masala ko‘proq nasab, etnik poklik va ruhoniy tabaqaga xos cheklovlar bilan ajralib turadi.

Yahudiylik va islomda nikoh bilan bog‘liq moliyaviy majburiyatlar umumiy maqsad jihatidan o‘xshash bo‘lib, ularning asosiy maqsadi ayolning iqtisodiy himoyasini ta’minlashdir. Ammo, mazkur tizimlarda shakl va amalga oshirilishi jihatidan ayrim muhim farqlar mavjud. Yahudiylikda ketuba nikohning ajralmas elementi bo‘lib, erkakning xotin oldidagi moliyaviy burchlarini rasmiy hujjat shaklida mustahkamlaydi; unda mohar miqdori, ayolning cheyizi, shaxsiy mulki va er zimmasiga o‘tadigan majburiyatlar aniq yozib qo‘yiladi. Ketuba ajrim yoki beva qolish holatida ayolning huquqlarini kafolatlovchi hujjat bo‘lgani sababli, u nikohni buzishni qiyinlashtiruvchi mexanizm vazifasini ham bajaradi.

Islomda esa mahr – ayolga bevosita beriladigan shaxsiy mulk bo‘lib, Qur’on bilan sobit bo‘lgan majburiyatdir. U nikohning rukni bo‘lmasa-da, nikohning to‘laqonli bo‘lishi uchun erkak zimmasiga yuklangan moliyaviy burchdir. Nikoh davomida esa nafaqa erning doimiy majburiyati bo‘lib, ayolning ta’minotini oziq-ovqat, kiyim, uy-joy va zaruriy ehtiyojlarini ta’minlaydi. Qiyosiy jihatdan, ketuba majburiyatlarning barchasini yozma shaklda tartibga solgan kompleks huquqiy hujjat bo‘lsa, Islomda bular mahr va nafaqa sifatida alohida shar’iy burchlar orqali tartibga solinadi. Yahudiylikda mohar ko‘pincha ajrim paytida to‘lanadigan kafolat bo‘lsa, islomda mahrning bir qismi oldindan, bir qismi esa kechiktirilgan holda berilishi mumkin.

Yahudiylik va islomda ajrim masalasi umumiy jihatdan o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa-da, ularning ham shariat belgilab bergan mexanizmlarida ayrim farqlar mavjud. Har ikkala dinda ham ajrimga zarurat bo‘lgandagina ruxsat beriladi, ammo yoqtirilmagan amal sifatida talqin etiladi. Asosiy maqsadlaridan biri ayollar huquqi, nasl-nasab hamda farzand huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Shu o‘rinda ajrimdan so‘ng havchanah (yahudiylikda) va idda (islomda) muddatini belgilashlik bilan nasab aralashuvi oldi olinadi. Muddatlarda farqli jihati namoyon bo‘ladi, shuningdek, yahudiylikda islomdan farqli o‘laroq ayoli vafot etgan erkak ham kamida uchta diniy bayram o‘tmaguncha oila qurmasligi tavsiya etiladi.

Yana bir farqli tomoni islomda raj’at imkoniyati mavjud, ya’ni idda davri davomida er-xotin qayta yarashib oilaviy hayotni davom ettirishlari mumkin. Lekin yahudiylikda get topshirilgach nikoh butunlay bekor bo‘ladi. Yahudiylikda get faqatgina diniy sud orqali, yozma hujjat bilan rasmiylashtiriladi. Islomda esa taloq ham og‘zaki ham yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Taloq voqe bo‘lishi uchun ma’lum yer belgilanmagan. Istalgan vaqtda, istalgan yerda tushishi mumkin. Yahudiylikda erkak ayoli bilan ajrashgach keyinchalik unga qayta nikohlana olmaydi, bu butunlay man etilgan. Shu sababli ularda get faqat ayolga bir erkak tomonidan bir marta beriladi. Islomda bo‘lsa ma’lum jarayonlardan so‘ng qayta nikohiga olishi mumkin. Shuningdek, islomda taloq adadlari bor, holatlarga qarab bir qancha turlari mavjud.

XULOSA

Diniy matnlar, tarixiy kontekslar va zamonaviy tadqiqotlar asosida olib borilgan tahlil natijalari shuni

ko‘rsatadi-ki, har ikkala din oila va nikohni muqaddas qadriyat sifatida talqin qilib, jamiyat barqarorligining asosiy omili deb biladi. Ammo shunday bo‘lsa-da, bu institutni tartibga soluvchi diniy-huquqiy mezonlar o‘ziga xos farqlarga ega ekanligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Yahudiylikda nikoh diniy marosim va huquqiy shartnoma (ketuba) orqali rasmiylashtiriladi. Ketuba erkakning ayol oldidagi moliyaviy mas’uliyatlarini qat’iy hujjat orqali belgilab, ajrim yoki bevalik holatida ayolning iqtisodiy himoyasini kafolatlaydi. Islomda esa nikoh ibodat maqomiga ko‘tarilib, iyjob-qabul, guvohlik va shar’iy shartlar asosida tuziladi. Mahrning ayolga bevosita berilishi, nafaqaning doimiy majburiyat sifatida belgilanib, Qur’on va sunnat bilan mustahkamlanishi islomdagi nikohning ijtimoiy va huquqiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ajrim masalasida ham o‘xshash jihatlar bilan birga farqlar mavjud. Har ikki dinda ajrim yoqtirilmagan amal sifatida talqin qilinib, oilani saqlash ustuvor qoida hisoblanadi. Har ikkala dinda ham ayollarning erkaklar ustidagi moliyaviy huquqlari o‘ziga xos va muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy masalalarda esa ketuba bilan mahr–nafaqa bir maqsadga – ayolning iqtisodiy himoyasiga xizmat qilsa-da, shakl va qo‘llanish jihatidan farqlanadi.

Umuman olganda, yahudiylik va islomda nikoh institutining asosiy g‘oyasi – oilaning muqaddasligini saqlash, ayol huquqlarini himoya qilish, nasl pokligini ta’minlash va jamiyatda ma’naviy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. Abdulaziz Mansur (2001). Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti.
2. Abdulaziz Mansur (2021). Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. –Toshkent: Sano-standart.
3. Arslantaş. (2008). İslâm Toplumunda Yahudiler. – Istanbul: İz Yayıncılık.
4. Bekar Adrienna. (1993). The Jewish Women in contemporary society. – New York: New York University Press.
5. Bouquet. A. C. (1958). Comparative Religion. – Baltimore: Penguin Books.
6. Burhonuddin Marg‘inoniy. (2021). Hidoya sharh bidoyatil mubtadi-2. –Toshkent: “Hilol-Nashr”.
7. Ekrem Sarlkçıoğlu. (2004). Başlangıçtan Günümüze Dinler Tarihi. – Isparta: Fakülte Kitabevi.
8. Friedman. (1985). Jewish Marriage in Palestine C. I. University of Pennsylvania Press.
9. İçten Erdinç. (2018). Yahudilikte ketuba, Dinler Tarihi. – Istanbul, Turkey: Balıkesir Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi 4/1 (haziran). https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/1060339
10. İçten Erdinç. (2019). Yahudilikte ketuba, Doktora Tezi. – Bursa: Burs Uludag Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
11. Islomov. Z. (2017). Dinshunoslik qomusiy lug‘ati. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi.
12. Kamilov M, A. Miravaz o‘g‘li. (2021). Hanafiy fiqhidan zarur masalalar. –Toshkent: “Shamsuddinxon Boboxonov” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
13. Mirziyoyev Sh. BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasidagi nutqidan.
14. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Baxtiyor oila. – T.: “Hilol-Nashr” nashriyot matbaasi.
15. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Kifoya 2-juz. – T.: “Hilol-Nashr”.
16. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2023). Hadis va Hayot. 13-juz. Nikoh, taloq va idda kitobi. – T.: “Hilol-Nashr”.
17. Muqaddas kitob. (2018). – Turkiya: Muqaddas kitobni tarjima qilish intituti.
18. Sunan ibn Majah 3-juz. (2007). – Riyadh: Maktaba Dar-us-Salom.
19. د. محمد مدبولي عبد الرزاق حسن حبيب. «مقاصد الزواج في اليهودية». –مجلة كلية الآداب والعلوم الإنسانية، العدد 39، 2022.
20. الدكتور أسعد السحمراني. البيان في مقارنة الأديان. – بيروت، لبنان: دار النفائس، ٢٠٠١ م.
21. محمد رفعت إبراهيم إسماعيل. المحرمـــات من النســـاء في الزواج بين اليهودية والنصرانية والإســـالم (دراسة تحليلية مقارنة). – مجلة القراءة والمعرفة (online). 10.21608 العدد 274 الجزء الثاني، 2024 م./mrk.2024.373186
22. (الطلاق في اليهودية والمسيحية والإسلام - نعيم الهاشمي الخفاجي) https://tabyeen.net/archives/2540 Murojaat sanasi: 26.11.2025
23. Abubakirova Munira. Kelin-kuyovlik baxti. (2017). https://www.muslim.uz/uz/e/post/37997-kelin-kuyovlik-baxti?page=3&per-page=1 Murojaat sanasi: 26.11.2025.
24. Fahrettin Atar. (2020). TDV İslâm Ansiklopedisi 31. Cild. Fahrettin Atar // https://islamansiklopedisi.org.tr/muharremat Murojaat sanasi: 28.10.2025.
25. Islom.uz. (2017). Талоқ (рисола) (2). Талоқ (рисола) (2) Murojaat sanasi: 10.11.2025.
26. Islom.uz. (2017). Талоқ (рисола) (8). Талоқ (рисола) (8) Murojaat sanasi: 10.11.2025.
27. Никоҳланиш. (2025). https://islom.uz/maqola/9636 Murojaat sanasi: 30.10.2025.
28. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Matbuot xizmati. Nikohi harom qilingan ayollar (birinchi maqola) https://muslim.uz/uz/e/post/41040-nikohi-harom-qilingan-ayollar-birinchi-maqola Murojaat sanasi: 28.10.2025.

REFERENCES

1. Abdulaziz Mansur. (2001). Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti.
2. Abdulaziz Mansur. (2021). Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano-standart.

3. Arslantash. (2008). Islam Toplumunda yahudiler. – Istanbul: Iz Yayinjilik.
4. As‘ad as-Sahmaroniy. (2001). Al-Bayon fi muqoronat al-adyon. – Bayrut: Dor an-Nafais.
5. Bekat Adrienna. (1993). The Jewish Women in contemporary society. –New York: New York University Press.
6. Bouquet A. C. (1958). Comparative Religion. – Baltimore: Penguin Books.
7. Burhonuddin Marg‘inoniy. (2021). Hidoya. Sharh Bidoyat al-mubtadi-2. –Toshkent: “Hilol-Nashr”.
8. Ekrem Sarlikcioglu. (2004). Baslangıctan Gunumuze Dinler Tarihi. – Isparta: Fakulte Kitabevi.
9. Friedman M. (1985). Jewish Marriage in Palestine. – University of Pennsylvania Press.
10. Icten Erdinc. (2018). Yahudilikte ketuba. Dinler Tarihi. – Istanbul, Turkey: Balikesir Universiteti Ilahiyat Fakultesi Dergisi, 4/1 (haziran). https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/1060339
11. Icten, Erdinc. (2019). Yahudilikte ketuba, Doktora Tezi. – Bursa: Burs Uludag Universitesi Sosyal Bilimler Enstitusu.
12. Islomov Z. (2017). Dinshunoslik qomusiy lug‘ati. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi.
13. Kamilov M, Miravaz o‘g‘li A. (2021). Hanafiy fiqhidan zarur masalalar. – Toshkent: “Shamsuddinxon Boboxonov” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
14. Mirziyoyev Sh. BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasidagi nutqidan.
15. Muhammad Madbuli ‘Abd ar-Razzoq Hasan Habib. (2022). Maqosid az-zavoj fi al-yahudiyya. – Majallat Kulliyat al-adab wa al-‘Ulum al-Insaniyya, 39.
16. Muhammad Rif‘at Ibrohim Ismoil. (2024). Al-muharramāt min an-nisā’ fi az-zavāj bayna al-yahudiyya wa an-nasroniyya wa al-islom (Dirāsa tahliliyya muqoronah). Majallat al-Qiro’a wa al-Ma‘rifa, al-adad 274 al-juz’u as-saniy. DOI: 10.21608/MRK.2024.373186
17. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Baxtiyor oila. – Toshkent: “Hilol-Nashr” nashriyot-matbaasi.
18. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Kifoya. 2-juz. – Toshkent: “Hilol-Nashr”.
19. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2023). Hadis va hayot. 13-juz. Nikoh, taloq va idda kitobi. – Toshkent: “Hilol-Nashr”.
20. Muqaddas Kitob. (2018). – Turkiya: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti.
21. Sunan Ibn Mojah. (2007). 3-juz. – Riyod: Maktaba Dar-us-Salom.
22. Abubakirova Munira. (2017). Kelin-kuyovlik baxti. https://www.muslim.uz/uz/e/post/37997-kelin-kuyovlik-baxti?page=3&per-page=1 (Murojaat sanasi: 26.11.2025).
23. Al-Khafaji, Na‘im al-Hashimiy. (2025). At-taloq fi al-yahudiyya wa al-masihiyya wa al-islom. https://tabyeen.net/archives/2540 (Murojaat sanasi: 26.11.2025).
24. Fahrettin Atar. (2020). Muharremat. TDV Islom Ansiklopediyasi, 31-jild. https://islamansiklopedisi.org.tr/muharremat (Murojaat sanasi: 28.10.2025).
25. Islom.uz. (2017). Taloq (risola) (2). Талок (рисола) (2) (Murojaat sanasi: 10.11.2025).
26. Islom.uz. (2017). Taloq (risola) (8). Талок (рисола) (8) (Murojaat sanasi: 10.11.2025).
27. Nikohlanish. (2025). https://islom.uz/maqola/9636 (Murojaat sanasi: 30.10.2025).
28. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Matbuot xizmati. (2025). Nikohi harom qilingan ayollar (birinchi maqola). https://muslim.uz/uz/e/post/41040-nikohi-harom-qilingan-ayollar-birinchi-maqola (Murojaat sanasi: 28.10.2025).